

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA AYOL OBRAZINING BADIY EVOLYUTSIYASI

Nosirova Gavharshobegim

Navoiy davlat universiteti 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol obrazining badiiy talqini va uning ma'naviy-ruhiy evrilishlari tahlil qilinadi. Adiba asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rni, oilaviy munosabatlardagi mavqei, ichki kechinmalari hamda hayot sinovlari ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy o'zgarishlar yoritilgan. Xususan, "Yetim uy" hikoyasi misolida ayol qahramonning xarakteri, ma'naviy olami va o'zligini anglash jarayoni bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ayol obrazi, ma'naviy evrilish, ruhiy kechinma, badiiy talqin, xarakter, o'zlikni anglash, zamonaviy o'zbek nasri, Zulfiya Qurolboy qizi, "Yetim uy" hikoyasi, ayol taqdiri.*

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol obrazi va uning ruhiy-ma'naviy dunyosini tasvirlash muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol taqdiri, uning jamiyatdagi o'rni, oilaviy munosabatlar va hayot sinovlari badiiy mahorat bilan yoritilgan. Adiba asarlarida ayol faqatgina oila bekasi yoki ona sifatida emas, balki o'z his-tuyg'ulari, orzu-intilishlari va murakkab ichki kechinmalariga ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu bois, yozuvchi hikoyalarida ayol obrazining ma'naviy va ruhiy evrilishlarini kuzatish mumkin.

Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan qahramonlar hayotning turli sinovlari orqali o'zligini anglaydi, ruhiy jihatdan o'zgaradi va kamol topadi. Bu jihat adibaning "Yetim uy" hikoyasi misolida buning yaqqol namunasini ko'rsak bo'ladi.

"Yetim uy" hikoyasi ayolning ichki dunyosi, uning o'tmish va bugun o'rtasidagi ruhiy kechinmalari hamda hayotga bo'lgan munosabatidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi asarlardan biridir. Hikoyada uy obrazi oddiy makon emas, balki inson taqdiri, xotiralari va ruhiy olamining ramzi sifatida talqin etiladi. Asar davomida ayol qahramonning hayotiy tajribalari, sabr-toqati va ma'naviy kuchi orqali uning shaxs sifatidagi shakllanish jarayoni ochib beriladi.

Shuningdek, ayol obrazi misolida ijtimoiy muammolar keng yoritib berilgan Zulfiya Qurolboy qizining "Yetim uy" hikoyasi zamonaviy o'zbek nasrida insonning o'z ruhiyati va ijtimoiy muhit o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yorituvchi psixologik-realistik asarlardan biri hisoblanadi. Hikoyaning mavzusi asosiy qahramonlardan va voqealar rivojini hikoya qiluvchi obraz tilidan aytilib, asar markazida atrofdagilar nazaridan chetda qolgan o'sha "yetim uy" egasi bo'lmish ayol obrazi va turli taqdirlarga ega kishilar tasvirlanadi.

Avvalombor, asar nomlashi alohida xususiyatga ega bo'lib, yozuvchi ramziy ma'noda qo'llanilgan. Hikoyaga xizmat qilgan bu uy aslida jismonan tashlandiq emas. Balki uning egasi bo'lgan Ra'no bu hayotning sinovlari qarshisida "yetim'ga aylangandek edi go'yo. Ra'no obrazi orqali ayolning ruhiy olami, ma'naviy ehtiyojlari hamda jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy muammolar badiiy tahlil etiladi. "Mana, yetmish sakkizinchi uy. Ikki tomonida burama moshina yo'li kesib otgani uchun boshqa uylardan alohida ajralib qolgan yetim uy... Faqat shaharning narigi chekkasida. Biz yashagan uy ham ikki tomondan burama moshina yo'li kesib o'tgani uchun qo'shni uylardan ajralib qolgan, besh qavatli, ikki xonalig-u bir xonalik kvartiralaridan iborat, lekin yaqinda qurib bitirilganligi uchunmi, yangi va ko'rimli edi. Devorlari silliq, bo'yoqlari yarqirardi. Ayniqsa, kechki paytlar botayotgan quyoshning olovrang shu'lalari uyning yon devorlarida jilva qilganida bir bosqacha fayzli ko'rinardi. Bu uy esa xuddi egalari tashlab ketganday ancha g'arib va qarovsiz edi

Ko'rinib turibdiki, muallif uyning tasvirini tashqi tomondan shunday tasvirlagan. Go'yoki, uy taqdiri bilan Ra'noning taqdiri bir-biriga o'xshash edi. Ra'no obrazi yozuvchi tomonidan ko'p qatlamli psixologik xarakter sifatida yaratilgan. Obrazning ichki dunyosi ochilishida muallif tashqi portret tasviridan ko'ra ruhiy holat tasviriga ko'proq urg'u beradi. Shu jihatdan, Ra'no o'zbek nasridagi an'anaviy ayol obrazlaridan farq qilib, faqat mehribon yoki fidoiy ayol sifatida emas, balki murakkab ichki kechinmalarga ega bo'lgan individual xarakter sifatida gavdalantiradi. Uning ruhiy iztiroblari, yolg'izlik hissi va mehrga ehtiyoji voqealar rivoji davomida bosqichma-bosqich ochib beriladi.

Hikoyadagi keksa oq sochli erkak bilan bog'liq epizod ham muhim psixologik detal vazifasini bajaradi. Dastavval, asarni o'qiyotgan o'quvchi, yosh juvonning bu erkak bilan munosabatini beixtiyoriy "yomon" ayolga chiqarib qo'yishi tabiiy, ammo mazkur tasvir yuzaki maishiy holat emas, balki qahramonning ichki bo'shlig'i va ijtimoiy himoyasizlik holatini ifodalovchi badiiy vositadir. "Mana bugun urishib qolishdi. Endi oqsoch ikki oy, balki, undan ham ko'proq qorasini ko'rsatmaydi. O'zicha arazlaydi, go'yo sensiz ham yashay olaman, deganday, kim bilsin, balki, chindan ham Ra'noni ko'rgisi kelmayotganiga, yoshi bir joyga borib qolganida yo'ldan ozganiga, o'zini o'zi ishontirmoqchi bo'lib vaqt o'tkazar, buyam, aslida, uning yoshidagi odam hayotiga raxna solayotgan keksalik ojizliklaridan biri, menimcha. Ra'no esa bu yoqda xun bo'lib yuraveradi. Ekin kutilmaganda yana oqsoch paydo bo'lib, Ra'noning yo'lini to'sadi."⁴⁹ Muallif ushbu epizod orqali ayolning ruhiy tayanch izlash ehtiyoji, hayotiy majburiyatlar va ma'naviy ojizlik epizodlarini ochib beradi. Shu sababli, bu sahna asarda psixologik konfliktni kuchaytiruvchi komponent sifatida xizmat qiladi.

⁴⁹ Zulfiya Qurolboy qizi. Tafakkur. Hikoyalar. Toshkent: "Oltin qalam" 2026, 100 b

Asarda psixologizm elementi yetakchi o'rin tutadi. Yozuvchi qahramon ruhiyatini ochishda ichki monolog, sukut, imo-ishora va detallar tizimidan samarali foydalanadi. Ayniqsa, qahramonning sukut holati semantik yuklama kasb etib, uning aytolmayotgan dardlari va ichki qarama-qarshliklarini ifodalaydi. Bu esa asarning emotsional-ta'sirchanlikni oshiradi.

Hatto, asarda kulminatsion nuqta hisoblanmish - Ra'noning tug'ilgan kunida bo'lgan voqeada, Ra'noning qay darajada ichki kechinmalarga boy va sodda ayol bo'lsada tashqaridan qilingan sha'niga tegadigan so'zga nisbatan bildirgan harakati uning aslida jamiyatning qurbonlaridan biri bo'lgaanligini isboti yotadi. "Ular befarzand edilar. Er-xotinga havas bilan qarab o'tirgan Ra'noxon ko'zimga allaqanday "oq qarg'a" emas, oddiy, baxtsiz xotin bo'lib ko'rindi. Beixtiyor uni oqlay boshladim: nima qilsin, onasi bolaligida olamdan o'tgan, otasi boshqa ayolga uylangach, uni o'gay onasining jiyaniga berishmoqchi bo'lishgan, endi o'n oltiga kirgan qizcha buni xoxlamaydi, shuning uchun shartta uyidan qochib shaharga keladi. Bu yerda qandaydir sulloh billan tanishib qoladi-yu, hayoti izdan chiqadi...".⁵⁰ Ko'rinib turibdiki, Ra'no obrazi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ayol qadrlining toptilishi va insoniy sha'nning kamsitilishi timsoli sifatida tasvirlanadi. U hikoyada murakkab taqdir egasi bo'lgan ayol sifatida gavdalanadi. U hayotdagi og'ir sinovlar, moddiy qiyinchilik va atrofdagilarning bepisand munosabati sabab ruhiy ezilgan obrazdir. Yozuvchi Ra'no timsolida jamiyatning ayollarga nisbatan adolat qarashlarini ochib berdi.

Birinchidan, Ra'noning ijtimoiy himoyasizligi uning tahqirlashiga sabab bo'ladi. U jamiyatda tayanchsiz, himoyasiz qolgan ayol sifatida boshqalarning meensimasligi va sovuq muomalasiga duch keladi. Bu holat o'zbek nasrida ayol fojeasining realizm asosida ifodalanishidir.

Ikkinchidan, Ra'no obrazi orqali ayolning ichki iztirobi va ruhiy kechinmalari ochiladi. Yozuvchi uning tashqi hayotidan ko'ra ichki dunyosiga chuqurroq kiradi. Ra'noning sukuti, iztirobi va yolg'izligi uning jamiyat tomonidan rad etilgan shaxs ekani anglatadi. Shu jihatdan, obraz psixologik realizm asosida yaratilgan.

Ilmiy tahlilda Ra'no obrazi psixologik realizm namunasi sifatida baholanadi. Chunki uning xarakteri voqealardan ko'ra ruhiy holatlar orqali ochiladi. U ozbek nasridagi sabrli, ichki dunyosi boy, ma'naviy jihatdan kuchli ayol obrazlaridan biri hisoblanadi. Rano obrazi orqali yozuvchi insonning eng katta ehtiyoji mehr va tushunishga bolgan ehtiyojini korsatadi.

Xulosa qilib aytganda, "Yetim uy" hikoyasi inson qalbidagi ruhiy yetimlik, mehr tanqisligi va ichki iztiroblarni mahorat bilan tasvirlagan psixologik asardir. Yozuvchi sodda uslub, chuqur ruhiy tahlil va ta'sirchan obrazlar orqali asarning badiiy qiymatini yuksaltirgan. Ra'no obrazi esa hikoyaning g'oyaviy va ma'naviy markazi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

⁵⁰ Zulfiya Qurolboy qizi. Tafakkur. Hikoyalar. Toshkent: "Oltin qalam" 2026, 104 b

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Туропова П. Адабий-эстетик идеал категориясининг трансформациялаш жараёни. Тошкент: Mumtoz so‘z, 2020й. 100 б.
2. . Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2018 й. 504 б.
3. Zulfiya Qurolboy qizi. Tafakkur. Hikoyalar. Toshkent: “Oltin qalam” 2026, 187b
4. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. Тошкент: Янги аср авлоди. 2006 й. 548 б.
5. Тўйчиева Ш. Ижодкор дунёқараши ва бадий услуб. Тошкент: Akademiya нашриёти. 2009 й. 132 б.